



OLIV TA'LIM MUASSASASIDAGI BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARI SHAXSINING O'QITUVCHILIK KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONI

Choriyeva Z.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Usanova M.

Shahrisabz davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

Tayanch so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, gnostik faoliyat, o'quv faoliyati, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, o'qitish, ta'lim, tarbiya

Key words: competence, professional competence, gnostic activity, educational activity, pedagogical activity, pedagogical process, teaching, education, upbringing

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, познавательная деятельность, учебная деятельность, педагогическая деятельность, педагогический процесс, обучение, образование, воспитание.

«Kasbiy kompetentlik» - xorijiy ta'lim tizimida keng tanilgan tushunchadir. So'nggi yillarda O'zbekistonning Yevropa hamjamiyatiga integratsiyalanishga intilishi sababli nafaqat kasbiy ta'lim rivojlanishi strategiyalari, balki innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish uchun ta'riflar asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim tizimida kompetentli yondashuv Boloniya va Kopengagen jarayonlari doirasida yagona yevropa ta'lim muhitini tashkil etish prinsiplariga yo'naltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining egallagan kasbiy tayyorgarliklari (bilimlar, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalar) natijasiga asoslaniladi. Ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz.

Ta'lim sifatini oshirish boshlang'ich ta'lim talabalarining pedagogik va kasbiy faoliyatlarining muvofiqlashtirilgan o'zaro aloqadorligi tizimini ko'zda tutadi, shakllangan o'quv ishining yakuniy natijasi esa pedagog shaxsi va uning



kompetentligi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot jarayoni tushunchaviy apparatni dastlabki aniqlashni talab etadi. Biz tomonimizdan quyidagi ta'riflar tanlandi:

Kompetentlik – mutaxassisning integral sifati bo'lib, shaxsning u yoki bu ijtimoiy rolni (professional, jamoat a'zosi, fuqaro va h.k.) ratsional amalga oshirishga tayyorligini tavsiflaydi.

Kasbiy kompetentlik – xodim (mutaxassis)ning integral sifati bo'lib, nafaqat maxsus faoliyatning u yoki bu sohasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini, shuningdek jamiyatda samarali ishlash malakasini ifodalovchi shaxs sifatlarining majmuidir. Kompetensiya – mutaxassisning ichki va tashqi zaxiralardan foydalanish asosida ma'lum kasbiy vazifalarni amalga oshirishga tayyorligida ifodalanuvchi ta'lim natijasidir. Maxsus kompetensiya – ma'lum mutaxassisning kasbiy faoliyatining funksional o'ziga xosligini ifodalovchi kasbiy kompetensiya.[6]

Adolf, E.F. Zeyer, I.A. Zimnyaya, V.V. Krayevskiy, N.V. Kuzmina, P.I. Pidkasiy, V.A. Slastenin va boshqa rossiyalik olimlarning tadqiqotlari pedagogik kasbni egallashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasi tayyorgarlikning asosiy turlarini o'zlashtirish sifatiga bog'liqligini isbotlaydi. Boshlang'ich ta'lim talabasining boshqa pedagoglardan farqli jihatlari u kelajakda o'quv fanlarining katta miqdorini o'qitishi va sinf rahbari hisoblanishidir.[2]

O'tkazilgan maktab direktorlarining (ish beruvchilar) va boshlang'ich ta'lim talabalarining anketa so'rovlari talabani birinchi sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish misolida ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi boshlang'ich ta'lim va oliy ta'lim malaka talablarining nomuvofiqligi, shuningdek boshlang'ich sinflarda o'qitish amalga oshiriladigan o'quv-metodik majmualarining xilma-xilligi bilan bog'liq katta ilmiy va amaliy qiziqishni ifodalashini ko'rsatdi.

O'qitishning variativligi sharoitlarida talabalar har bir O'MMning xususiyatlarini bilishlari va ular bo'yicha ishlashni bilishlari kerak.

Afsuski oliy ta'lim muassasasi darsliklarida, zamonaviy o'quv-metodik majmualarida innovatsion metodikalarni kiritish lozim. Shuning uchun yosh pedagog OTMni bitirganidan so'ng qo'shimcha qayta tayyorlovdan o'tishiga to'g'ri keladi. Yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun boshlang'ich ta'lim talabasining kasbiy kompetentlik strukturasi ishlab chiqish, jarayonning ratsional texnologiyasini tanlash, boshlang'ich ta'lim talabalarida alohida kompetentliklar shakl va rivojlanganligi darajasining zaruriy nazorati muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim talabalarining bilim, ko'nikma va malakasini oshirish bo'yicha tadqiqotlar tahlili quyidagilar o'rtasida qator ishlarni amalga oshirish imkonini berdi: boshlang'ich ta'lim talabalarining kompetentliklari



darajasiga zamonaviy talablar va fanda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning konseptual-texnologik asoslarining yetarli ishlab chiqish; yaxshi amaliy tayyorgarlikka ega boshlang'ich ta'lim talabalariga talab va so'nggi yillarda o'quv-tarbiyaviy jarayonining talabning nazariy tayyorgarligiga yo'naltirish; kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan boshlang'ich ta'lim talabasini takomillashtirish zarurati va maqsadga muvofiq o'quv-metodik ta'minotni ishlab chiqish; kasbiy kompetensiyalar shakllanganligi va rivojlanganligi darajasini o'lchash orqali ta'lim sifatini baholash monitoringini o'tkazish.

Boshlang'ich ta'lim talabalarining bilim va malakasini oshirishda, kasbiy o'z-o'zlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishni talab etadi.

Ehtimol ko'pgina faoliyat turlarining kompleks birligidagi ulardan birortasining sharoitga muvofiq ustunligi to'g'risida ta'kidlash zarurdir. Masalan, pedagog faoliyatidagi mavjud tashkilotchilik qobiliyatlari albatta o'quvchilar bilan muloqotga e'tibor qaratishni, gnostik qobiliyatlar (bilishga oid rivojlanish) o'rganish va o'yinning ustuvorligini nazarda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim talabasi ta'limining o'ziga xosligi ko'pincha "o'quv faoliyati" tushunchasi bilan tenglashtiriladigan "o'qitish" atamasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

O'qitishning asosiy maqsadi – "ma'lum bilim, ko'nikma, malaka, xulq shakllari va faoliyat ko'rinishlarini o'zlashtirish" hisoblanib, u "faol gnostik faoliyatda ifodalanadi va unga asoslanadi". Biz ular barcha yosh davrlarini qamrab olinishi bilan tushunilishi yanada samarali deb hisoblaymiz.

«O'quv faoliyati – bu o'z mazmuniga ko'ra ilmiy tushunchalar sohasidagi hatti-harakatlar umumlashgan usullarini egallashni ifodalaydigan faoliyatdir».[3]

I.A.Zimnyaya o'quv faoliyatiga tavsif berib, bu "subyektning o'quv hatti-harakatlar umumlashgan usullarini egallash va o'z-o'zini nazorat qilish va baholashga aylanuvchi tashqi nazorat hamda baholash asosida o'qituvchi tomonidan maxsus qo'yilgan o'quv vazifalarini yechish jarayonida o'zini rivojlantirish bo'yicha faoliyati" deb ta'kidlaydi. [4]

Bunday tushunishda o'quv faoliyati birinchi o'ringa o'qituvchi shaxsini chiqarishni nazarda tutadi. O'zining gnostik yo'nalganligini yo'qotmay, u bir vaqtda mazmuni ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun optimal sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lgan pedagogik faoliyatga aylanadi. Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi u ta'lim oluvchining hamda ta'lim beruvchini rivojlantirish va takomillashtirishni anglatadi. O'quv-tarbiya jarayonida talaba nafaqat bilimlarni yetkazuvchi sifatida xizmat qiladi, balki o'quvchi uchun katta avlodning tajribasi va madaniyati mujassamlashgan timsoli sifatidagi ustoz va tarbiyachi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning asosiy tashkil etuvchisi pedagogik hatti-harakat hisoblanadi. V.A.Slastenin pedagogik faoliyatning tashkil etuvchisi tarbiyaviy ish va o'qitish hisoblanadi deb ta'kidlaydi. Birinchisi o'quvchilarning ustuvor ravishda bilishga oid faoliyatlarini boshqarishga qaratilgan, tarbiyaviy muhitni tashkil etishga va tarbiyalanuvchilarning turli-tuman faoliyatlari ko'rinishlarini boshqarishga yo'naltirilgan.

V.A.Slastenin o'qitishga pedagogik jarayonni tashkil etish usuli sifatida murojaat etib, "o'qitish pedagog tomonidan boshqariladigan o'ziga xos bilish jarayoni" deb ta'kidlaydi. Bundan o'qitish – bu ko'pgina hollarda tarbiyaviy ta'sirdan kam bo'lmagan malakalarni talab etuvchi kasbiy pedagogik faoliyat ekanligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin. Bizning fikrimizcha, talabning professionalligi o'qitish va tarbiyaviy malakalarning birligidir. Natijada muallif o'qitishning muhim funksiyalarini sanab o'tib (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi) hamda talaba faoliyatining mazmuni "o'quvchilarning faol va ongli bilishga oid faoliyatlarini boshqarishdan iborat"ligini ta'kidlaydi.[7]

Talabalarni bilim olish sifatini oshirish, takomillashtirish, metodika fanlarini o'qitishni ko'zda tutuvchi yuqori darajadagi dasturlarni amalga oshirish amaliyotini kengaytirish, shuningdek ularning qo'shimcha ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlariga e'tibor berilishi kerak. Oliy ta'lim tizimida asosiy va yuqori darajadagi ko'p darajali pedagogik ta'lim tizimi yaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim talabalarini tayyorlashning malaka talablari, dasturlar, o'quv rejalar va metodikasini ishlab chiqish quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- 1) ilmiy va kasbiy metodik tayyorgarlikni kuchaytirish;
- 2) ta'lim tizimini insonparvarlashtirish;
- 3) ta'lim mazmunini tanlashga kompetentli yondashuv;
- 4) ta'lim bosqichlarining uzluksizligi;
- 5) shaxsning mustaqil ta'lim olish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- 6) ta'lim dasturlarining xilma-xilligi va tizimining kafolatli moslashuvchanligi.

Talabalar o'zining kasbiy vazifalarini, bilim va ko'nikmalarni ifodalashga, boshlang'ich ta'limning odatiy vazifalarini hal etishga tayyor bo'lgan usta darajasida amalga oshirishi kerak: bu – metodik faoliyat usullarini egallagan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitishning asosiy, amaliyotda qo'llaniladigan dasturlari bo'yicha ongli ijrochilik faoliyatiga tayyor bo'lgan talabadir.

Jamiyatdagi integratsion jarayonlar ta'lim tizimi oldiga talabalarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishni zamonaviy maktab talabalariga mos ravishda takomillashtirish muammosini ilgari suradi. Shu sababli, o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun u kasbiy kompetentlikning bazaviy darajasiga



ega bo‘lishi kerak. Kasbiy kompetentlik – birgalikda yoki alohida holda mutaxassisning ma’lum kasb, mutaxassislik, ixtisoslik, malaka talablarining, egallagan yoki bajaradigan xizmat faoliyatining malaka zaruriyatiga, ehtiyojiga va talablariga, jismoniy va ma’naviy mosligini ta’minlaydigan pedagogning sifati, xususiyati yoki holatidir.

Tadqiqot ishimiz tahlili, boshlang‘ich ta’lim talabalari quyidagi sifatlarga ega bo‘lishlari kerak: qat’iy ishonch; ilmiy dunyoqarash; ijtimoiy faollik; kasbiy-metodik yo‘nalganlik; xilma-xil psixologik bilim va malakalar; o‘z mutaxassisligi bo‘yicha keng bilimlar; metodik bilimlar va malakalar shakllangan va rivojlanganligining yetarli darajasi; axloqiy sifatlar; mustaqil ta’lim ko‘nikma va malakalari hamda malaka oshirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
2. Адолф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: дисс. ... д-ра пед. наук. М., 1998. – 356 с.
3. Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессиональное образование. - Екатеринбург, 1998. - 186 с.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня - 2003. № 5. С. 34-42.
5. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. –T.: 2007, – 315 b.
6. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. - М., 1997.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich ta’lim talabalari shaxsining o‘qituvchilik kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini boshqarish omilari keltirilgan. Shuningdek oliy ta’lim muassasining bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kasbiy kompetentligi, uni egallashdagi integratsion jarayonlar hamda shakllanishi kerak bo‘lgan kasbiy sifatlar xususida tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование и развитие педагогических профессиональных качеств учащихся начальных классов в высшей школе. Также даны рекомендации по профессиональным компетенциям, которыми должны овладеть выпускники вуза, интеграционным процессам их приобретения, формируемым профессиональным качествам.

SUMMARY

This article discusses the factors governing the formation and development of the teaching-professional qualities of elementary school students in higher education. Recommendations are also made on the professional competencies to be acquired by the graduates of the higher education institution, the integration processes in its acquisition, and the professional qualities to be formed.